
"Al-Xorazmiy" mahalla fuqarolar yig'ini hududida 5 ta bolalar maydonchasi va sport kompleksi qurilmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Al-Xorazmiy" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 35 ta ko'p qavatli uylar tutash hududlarida 5 ta bolalar maydonchasi, 1 ta sport kompleksi qurilishi belgilangan. Hozirda ilk bolalar maydonchalari foydalanishga topgirilib, qolganlarida qurilish-montaj ishlari davom etmoqda. Mazkur ishlar uchun respublika byudjetidan 1 mlrd. 500 mln. so'm mablag' ajratilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-11 16:15:52